



№ 10 (90),
2020-yil oktabr.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

IJODIY PARVOZ



O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI REKTORINING BAYRAM TABRIGI

Aziz ustozlar! Qadrli hamkaslar! Avvalo, siz azizlarni, sizlarning timsolingizda ustoz degan sharaflı nomni ulug'lab kelayotgan yurtimizdagi barcha insonlarni umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan samimiyl muborakbody etaman. Bugungi qutlug' ayyom o'zbek madaniyati va san'atining yetuk darg'alari, institutimizning fidoyi ustozlari hamda barcha xodimlarimizga muborak bo'lgin!

Alloh taolo Qur'oni Karimning "Mujodalal" surasining 11-oyatida shunday marhamat qiladi: "... Allah sizlardan imyon keltirganlarning va ilm berilganlarning darajalarini ko'tarur. Allah nima qilayotganlaringizdan xabardordir".

Mazkur oyati karimada Allah taolo ilm egallagan va uni boshqalarga yetkazishda xolis sa'y-harakat qiladigan ulug' ustozlarning obro'-e'tiborlarini yanada yuqori ko'tarib qo'yishini va'da qilmoqda. Ushbu hadisi sharifdan ham ko'rinib turibdiki, ustozlik – bu eng ulug' kasb, eng ulug' maqomdir.

Biz uchun hamisha ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsoli bo'lgan sizlar kabi aziz va mo'tabar zotlar sha'niga eng go'zal so'zlar, ezgu tilaklarimizni izhor etamiz. Sizlarning barchangizga hech qachon uzib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi bilan ta'zim qilamiz.

Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, dunyoning bor boylik va xazinasi bilan ham sizlarning oljanob mehnatingiz haqini ado etib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, har bir murg'ak bolani o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar to'moda fidoyi kasb egalaridir.

Biz bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid hamda ishonch bilan hayotga qadam qo'yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan ming-minglab farzandlarimiz kamolida o'qituvchi va murabbiylarimizning beqiyos hissasi borligini yaxshi bilamiz va sizlarning bu ulug' xizmatingizni yuksak qadrlaymiz.

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal etish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Sizlarni 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlilik, baxt va omad, xonardonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman. Doimo sog'-omon bo'ling, aziz ustozlar!

Cheksiz ehtirom ila,

Ibrohim YO'L DOSHEV,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori



Xurshid DAVRON,
O'zbekiston xalq shoiri

Kelib ketdi necha dunyolar,
Kuldi hayat, yig'ladi o'lim.
Sen deb qurban bo'ldi bobolar,
Ular ketdi, sen qolding, tilim.

Belanchaging uzra Koshg'arly
Kuylab o'tdi qadim navoni
Va navqiron yaproqlaringga
Dil qonini berdi Navoiy.

Samarqanddan Bobur ketarkan
Dilda bo'g'ib hasrat sasini,
Olib ketdi ona yurtidan,
Turkiy tilim, birgina seni.

Mashrabmas, sen osilding dorga,
Nodiramas, sensan so'yilgan
Hoziqningmas, sening, ey tilim,
Boshing ayru, ko'zing o'yilgan.

Ammo dushman o'ldirgan botir
Tirilgandek yana qasosga,
Mangu borsan va mangu qodir
To'ldirmoqqa yerni ovozga.

Vatan uchun baxsh etib jonne,
Kechib olov, kirib daryoga,
Farzandlaring to'kkon har qonni
Shimirding sen o'xshab giyoga.

Ona tilim, omon bo'l mangu,
Sen borsan-ki men ham o'lmayman,
Tildan qolsam, seni Oybekday
Men ko'zlarim bilan so'ylayman.

IMTIYOZ ASOSIDA TALABALIK BAXTI



Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash, ularning ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdag'i farmoniga ko'ra, xotin-qizlarning oliv ta'lim muassasalarida tahlil olishlari uchun yanada keng imkoniyatlardan yaratish maqsadida ularga ajratilgan alohida 4 foizli qo'shimcha qabul ko'satkichlari mazkur yo'nalishdagi yana bir muhim qadam bo'ldi. Ushbu hujjatga asosan xotin-qizlarni oliv o'quv yurtlariga qo'shimcha davlat granti asosida qabul qilish tizimi joriy etildi. Nati-jada birligina 2020-yilning o'zida respublikamiz bo'yicha 940 nafar xotin-qiz talaba bo'lishdek baxtga erishdi.

Mamlakatimizda hukumatimiz tomonidan yaratib berilayotgan mana shunday imkoniyat va sharoidan unumli foydalangan yoshlarning 8 nafari bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining davlat granti asosida tahlil oladigan talabasiga aylandi.

Bugun ana shunday baxtga tuyassar bo'lgan yoshlarni qutlash uchun institut rahbariyati Toshkent shahri, Chilonzor tumanida istiqomat qiladigan Muxli-

sa Usmonova, Toshkent viloyatining Qibray tumanida yashaydigan Gavhar Nurmonova hamda Nozanin Salimov alarning xonardonlariga tashrif buyurishdi. Institut rahbariyati ularni davlat granti asosida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi bo'lganligi bilan mazkur oliv o'quv yurti jamoasi nomidan qutladi. Shuningdek, ushbu tadbirda institutning Jamoatchilik Ken-gashi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo ham ishtirok etib, talabalik baxtiga tuyassar bo'lgan yoshlarimiz va ularning ota-onalariga mamlakatimizda

xotin-qizlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan hamda ushbu imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanish zarurligini ta'kidlandi. Shundan so'ng, davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan talabalariga jamoaning esdalik sovg'alari va institut rektorining tabriknomasi taqdim etildi.

O'z navbatida, talabalar ham mamlakatimizda ular uchun yaratilayotgan bunday imkoniyatlardan berilayotgan imtiyozlar uchun Prezidentimizga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.



IKKI EMAS, TO'RT TIL LOZIM

bu uch tilda mukammal tahriri adabiyg'a molik yo'qdur. Ya'ni usuli ta'lim va tadirisi isloh etmak kerak. O'tayluk.

Turkistonning Samarqand va Farg'on-a viloyatlarinda forschayso'ylayturgan bir necha shahar va qishloqlar bordur. Buxoro hukumatining tili forsiyidur.

Fors shoir-u udabosi asarlari qiyomatg'acha lazzati ketmayturgan xazinayi ma'naviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupoyilar milyardlar sarf etarlar.

Bizg'a saodatdurki, turkiy va forsiyni tafsilsiz bilurmiz. Har turkni forsiy va har forsni turkin bilmog'i lozimdir.

Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, "Masnaviy"dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolsto'y, Jul Vern va ulamoyi zamoni yasarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur.

Farang va rus donishmandlarining asarlaridan foydalanmoq turkiy yo'rusiylar va farangiy bilmak ila mumkin bo'lur, na uchunki bugun usmonli, Kafkaz va Qa-

zon turklari zamona ulamosi asarini turkiyga tarjima qilib, ko'paytirgandurlar, ya'ni turkiy bilgan kishi zamoni bilur. Turk tilig'a har bir yangi va naf'lik kitoblar barcha tilda tarjima bo'lgandur. Arab madaniyati yunoniy Suqrot, Buqrot, Falotunlardan foydalanganidek, zamonni hozira madaniyati Tolsto'y, Jul Vern, Kepler, Kopernik, Nyutonlardan foydalanur. Maqsaddan uzoq tushdik.

Bizg'a lozimki o'z naf'imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktabalarinda o'quylik. Davlat mansablarig'a kiraylik. Vatanimizg'a va o'z dimimizg'a xidmat etayluk. Musulmon bo'lub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islam va millatga xidmat ilmsiz bo'lmayduri. Massalan, bugungi "podsholik duma"g'a o'z din va millatimiz naf'ig'a so'zlamoq bizzalr uchun mumkin bo'lur. Ammo anda borib so'ylaguvchi kishi bizg'a yo'q. Anda borib naf'i bir o'n-sana o'qumog kerak, zamondan, qonundan xabardor bo'lmoq kerakdur.

Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya'ni arabi, rusiy, turkiy va forsiy.

Arabi til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdir.

Hadisi sharifdan ma'lum bo'ladurki, janobi payg'ambar o'z sahabalaridan Zayd bin Sobit(g'a) yahudiy xatini o'qub-o'rganmoqg'a buyurgan ekanlar. Va ul janob Umar hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib hazrat payg'ambarg'a yahudiylardan kelaturgon xatlarni o'qub berar ekanlar (Sahih Buxoriy, juz 4, sahifa 156).

Holbuki, ul zoti bobarakot payg'ambarimiz quvvati hokima egasi edilar. Yahudiylar mahkum va tobe' edi. Alon Rusiya hokim, bizlar anga tobe' va o'z tirikligimiz uchun alar xatini bilmox zarur va hadisi sharif dalolatincha durustligig'a joyi inkor bo'lmasa kerakdur.

*Mahmudxo'ja BEHBUDIY.
"Oyna" jurnali, 1913 yil, 1-son*

HIFZI

ningdan olguncha, yomon uyingni qidir", - demishlar. Bobolarimizga yetushg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak yo'qolganlarni ham topurmiz. "Yo'qolsa yo'qolsun, o'zi boshimga tor edi", - deb Yovrupo qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lma zo'r ayma uyatdir. Payg'ambarimiz: "Erlarda jamol lison va tildur", - demishlar.

*Ey, ona til, aziz qadronim,
Iltifoti ruhim, Rahmonim,
Tug'dig'im kundan aylading ulfat,
O'lguncha ayilma, ey, jonim.
Menga ilm-u adab san o'rgatding,
Chin adib, muallim, shonim.
Millatning ruhini ko'targuchisan,
Eng muqaddas karamli sultonim.*

LISON

Umumiylil tilni saqlamak ila barobar xususiy og'iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdir. Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozusidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiyamatini so'zlagan so'zidan bilurlar. "Quruq so'z quoqg'a yoqmas", - demishlar.

Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lub, o'ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgan bo'lmasa, asalarilari orasida g'ung'urlab yurgan qovoqari kabi quruq g'o'ng'urlamoq faqat bosh og'rig'idan boshqa bir narsa emasduri. Boshimizga keladurgan qattig' kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: "Ko'p o'yla, oz so'yla", - demishlar.

Tillarning eng yaxshisi so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi bilub, oxirini o'ylab so'ylangan so'zdur.

*Go'zallik yuzda ermas, ey, birodar,
So'zi shirin kishi har kimga yoqar.*

*So'zing oz bo'lalu ma'noli bo'lsun,
Eshitkanlar qulog'i durga to'lsun.*

*So'zing bo'lsa kumush, jim turmak oltin,
Misi chiqg'ay, so'zing ko'p bo'lsa, bir kun.*

*Ko'paygan so'zni bo'lgay to'g'risi oz,
Shakarning ko'pidan ozi bo'lur soz.*

Abdulla AVLONIY

Yohu! Bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqub ketduk. "Yaxshi qo'sh-

TILIMIZ

ABDURAUF FITRAT MADANIYAT HAQIDAGI QARASHLARI



Abdurauf Fitrat o'zbek xalqi hayotda XX asr tongida boshlangan Yangi Milliy Uyg'onish davri va uyg'onish adabiyotining buyuk vakilidir.

Adibning hayoti va ijod yo'li

Abdurahim o'g'li Abdurauf 1886-yil Buxoroda tug'ildi. Mir Arab madrasasida o'qidi. Turkiyaning Istanbul dorilfununidagi to'rt yillik tahsil Abdurauf dunyo-qarashining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. "Yosh buxorolilar"ning siyosiy kurashlaridagi faol ishtirok, maorifni isloh etish, jadidchilik harakatlaridagi jiddiy izlanishlar tufayli tug'ilgan savollarga bu mamlakatning zamonaviy kechmishlaridan javoblar qidirdi.

Bu vaqtida u "tug'ma iste'dod" ma'nosini anglatuvchi Fitrat taxalusi bilan ijod etayotgan shoir va yozuvchi sifatida el-yurtga taniqli edi.

Mana sizga yolg'iz fe'lllardan 13 fe'l, qo'shma fe'lllardan 6 fe'l. Qo'shma fe'l-lardan har birining buyrug'i bo'lishi (fe'lning bo'lishlilik kategoriyasi), holi, kelajagi, sharti, qo'zg'avi bor. $13 \times 6 = 78$ bo'lur. Bunlarg'a uft (fe'llari – fe'lning zamon kategoriyasi), vaqt, sabab fe'llari qo'shilsa, 81 ta bo'lur. Bunga ism va sıfat yozilg'an 18 qo'shilg'anda 99 so'z bo'lur. Bu 99 tasidagi so'z tollug'i (o'zak ma'nosida) buyruqdir (ya'ni, *bil* so'zidir). Demak, turkchada bir tomirdan 98 so'z undiring emish.

Emdi yusup tugalligiga (mukamaliyati qavoidg'a) boqaylik: arab, fors, rus, nemis, fransuz tillaridan qay birining sarf (grammatika) kitoblarini olib qarasoq ko'ramizkim, bir so'zni yasamoq uchun bir qancha yozilg'an, undan so'ng shul qoidadan tashqari qolq'an (mustasno) so'zlar deb to'rt-besh so'z ko'rsatilgan. Turk so'zlarinda esa, bunday so'z topilmaydir. Yusupsizlik degan hollar turkcha sarfda sira yo'qdur. Tilimizning avji to'g'risida ham boylig'i, tugalligi bilindimi?

Emdi so'zni turkchaning baxtsizlig'i na ko'chiraman. Turk tili shuncha boylig'i, shuncha tugalligi bilan baxtsizlikdan qutula olmamishdir. Turk tili dunyoning eng baxtsiz tilidir. Turkchaning baxtsizligi arab bosqini bilan bog'lanmishdir. Arablar bosidlari (bosib olgan ma'nosida) o'lkaga yolg'iz hukumatlarini emas, dinlarini, yo'sinlarini-da tanitgan, oling'an edilar. Musulmonlikning tubi, tomiri Qur'on bilan Hadisdir. Shuning uchun yangi musulmonlar arabcha o'rganishni o'zlariga vajob deb bildilar, o'qidilar, o'rgandilar, sevdilar. Bundan keyin forsi(y)cha va turkcha arabcha bo'g'uviga kirib qoldilar. Fors tilining hol butunlay yomonlashdi. Forslar o'z tillarini tashladilar. Yolg'uz kitoblarini emas, o'zaro yozuvlarini ham arabcha yoza boshladilar. Lekin, bu ish ko'b cho'zil-madi. Fors tili bir silkinish bilan o'zini arab bo'g'uidan qutqara oldi. Fors tilining bu silkinishi Eron shoiri Firdavsiyning chiqishi edi. Firdavsiy arabchaliqqa qarshu qaynag'an, qizig'an bir millatchi

edi. O'ttiz yil tirishdi, dong'li «Shohnoma» kitobini yozib chiqardi. «Shohnoma» yozib chiqarudan Firdavsiyning ikitila tilagi bor edi: Eron ulusining arabdan sovutib, eronli tuyg'usini bermak va arab tilini Erondan surib chiqarmoq. Shuning uchun «Shohnoma»ning har bir yerinda eronlini maqtag'an shoir arabliqqa kelganda:

*Zahir shutur xo'r dan susi mor,
Arabro ba joyi rasidast kor.*

*Ki taxi Kayonro ko'nad orzu,
Tfu, bar tu, Charx gardun tfu! –*

deb qiyqirmishdir. Bu so'zlarining turkchasi shudir: "Tuya suti bilan ilon eti yemakdan boshqa ish bilmagan arabning ishi shu yerga chiqmishkim, Eron imператорining taxtini istaydilar. O, shu ishiga sabab bo'lg'an falak, tfu senga, tfu!"

Yana shuning uchundirkim, Eronda arabcha hokim bo'lg'an bir zamonda yozilg'an «Shohnoma»da arabcha so'zlar yo'q darajada ozdir. Firdavsiy bu iki tilakni bilib, onglab, ishga kirishganini bildirmakchi o'lib, yozadirkim:

*Bas, ranj burdam soli si,
Ajam zinda kardam ba dini forsiy –*

demishdir. Turkchasi: "Bu o'ttiz yil ichida ko'p emkaydim (azob chekmoq), Eronni forsi(y)cha yozdig'im shu kitob ila turg'izdim, demakdir. Forsi(y) ishdi shunday qilib yoqasini qutqarmish. Lekin, bizning baxtsiz turkchamiz bir Firdavsiyni yetishtira olmamish.

Dunyoning eng boy tili bo'lg'on turkchamiz yolg'uz arabcha qumruqlar (zug'um) bilan emas, forsi(y)cha tepkilari bilan daxi ezilmishdir. Ko'zlarimizni to'rt ohib qarayliq, dunyoning eng buyuk hakimi bo'lg'on Ibn Sino turkdir. Ikinchi Arastu atolg'an Forobi turkdir. Arab tilini mangulik turgizib kelgan Javhariy turkdir. Vahdati vujud falfasining imomlaridan o'lgan Jaloliddin Rumiy turkdir. Forsiy adabiyotning payg'ambarlaridan bo'lgan Nizomiy daxi turkdir. Shu yerda otlari yozilg'an kimsalar-da yolg'uz turk ulusini emas, butun dunyoning ulug' kishilarindan erurlar. Iki turk ulusi bunlarning asalarindan osig'lanolmay (ajralmoq) qolmish, balki o'zlarini ham yaxshigina taniyolmay qolmishdir. Bunlari o'z biliklarini turkcha yozsalar edi, bukun turk ulusining holi ehtimolki, boshqa turli bo'lar edi. Baxtsizliq bundan-da ortiq bo'lurmikan?! Turk o'g'li turk bo'lg'an Mahmud G'aznaviy Firdavsiyini chaqirib, turk ezilishini ko'rsatgan «Shohnoma»ni yozdursun-da, har yo'liga bir oltun bersun. Shul baxtsizliqdirkim, turk o'g'li bo'lg'an usmonli xoqonlari ga o'z tuyg'ularini forsi(y)cha she'r bilan so'yaltmishdir. Yana shul baxtsizliqdirkim: Kafkaziya turklarining yoqalarin tutmish-da fors tilining hurmati uchun sakson yerinda hashot dedirmishdir.

Turkcha baxtsizdir. Ming yildan beri ezila kelmishdir, lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir – yashar. Negakim, boydir. Turkcha yashamishdir. Yashar, lekin o'zini arab, fors tillarindan qutqara olurmi, yo'qmi? So'zni bu yerga yetirgach, barmog'imni yaraning o'zagina bosmish bo'ldim. Bu so'rdig'imga

iki turli javob kelari belgilikdir: ha, yo'q. Emdi shu "yo'q" deganlar bilan yurishaylik. Bunlar deyalarkim, turkcha arab fors tillarindan qutulolmas! Nechun? Mana dalillari:

a) chunki, arab, fors tillari boydir. Buni javobini berdikkim, turkcha ham boydir. Chunki bukungi turk dunyosining bilimli ulug' yozuvchilari shu yo'lda kirmishdir. Bunga javob beramizkim: turk dunyosining ulug' hakamlari bo'lg'an Forobi bilan Abu Ali o'z asarlarini arabcha yozarg'a qo'l qo'yg'an edilar. Siz nechun ularning izidan chiqdingiz? Siz Abu Alining izidan chiqqanda, bizda sizning izingdan chiqqa olsaq kerak;

b) chunki tilimizda ko'b narsaning oti yo'qdir. Javobimiz: Bu so'zdan tilagingiz nimadir? Shul choqda tilingizdag'i arab, fors so'zlarining turkchasi topilmaydur demoqchi bo'lsangiz, so'zingiz yanglishdir. Turkchani bilmas ekansiz. O'rganing. Hozirgi so'zlarimizdag'i arabcha, forsi(y)chalaridan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir, desangiz to'g'ridir. Biz ham ularni chiqarmoqchi emasiz. Unlarni olurmiz, lekin o'zimizni qilurmiz. Turkchalaştirurmiz. Qoidaning turkchasi yo'qdur. Sarfning-da turkchasi topolmadik. Ikisin daxi olurmiz. Lekin, siz kabi qavoyidi sarfiya demasdan, *surf qoidalari* dermiz:

d) chunki ilmiy istilohlarning turkchasi yo'qdir. Kim dedi buni? Shamsning turkchasi quyoshdir. Kavokibning turkchasi yulduzlardir. Manorning turkchasi olov, o'tdir. Sahobi munavvar – yorug' bulut; handasa – o'lchov xat chiziq, zoviya – burchak, puchmoqdir. Kavokibi sobita – turg'uvchi yulduzdir. Kavkobi zu zaib – quyruqli yulduzlardir. Tuzuk, bir necha istilohlarning turkchasi bukungacha topolmag'anmiz, ularni saqlarmiz. Chunki, turkchamiz qabo (orqada)dir, daqqi (qo'pol)dir, adabiyot tili emasdir.

So'z bu yerga keldimi? Chidamoq qo'ldan kelmas. Qaboliq, daqqiliq ko'rsatmakchi bo'lib deymizki: siz ulusingizni sevmaysiz. Shuning uchun turk ulusi va turk tilining siz bilan ishi yo'qdir. Qarshingizdag'i kishilar bu so'zni eshitib o'tirmaslar, qilarini qilarlar. Men ulusimni jonimdan ortiq sevaman derlar. Bunlarning mana shu so'zleri qumuch (yolg'on)dir. Tushungizda siz bir xotinni sevsangiz, tirisib, jon chekishib, kuch bilan uyig'a kiribsiz, yonig'a suqulg'andan keyin, yuzig'a qarab: "Men sizni ko'b sevaman, siz ko'b chiroyliksiz, lekip shu ko'zingiz ko'b daqqidir, shuni chiqarib tashlang. Burningiz yomon is beradir, shuni kesib oting", – desangiz sevgilingiz bo'lg'an xotin iki-uch tayoq urib sizni quvmasmi? Albatta, quvar. Turk ulusini sevamiz, lekin tili qabodir, musiqasi totsizdir, tarizi qorong'udir, deganlarning ham bir-iki tayoq yeb, quvilmoqlari kerakdir. Lekin turk tili baxtsizdir.

Abdurauf FITRAT
*"Ishtirokiyun" ro'znomasining
1919-yil 12-iyundagi 32-soni.*

*"Fitna san'ati" (2-kitob,
"Fan" nashriyoti, Toshkent, 1993)
kitobidan olindi.*

MIRTEMIR,
O‘zbekiston xalq shoiri

ONA TILIM

Yobonlarning cheksizligi,
Ham samumi, ham hovuri,
Onajonlar allasidan,
Qo‘z yoshidan, oq sutidan;
To‘qaylarning tengsizligi,
Jilg‘alarning sho‘x g‘ovuri,
Yigitlarning yallasidan,
Suluvlarning sukulidan –
Yo‘g‘rilgan til –

Ona tilim.

Daryolarning toshqin payti
Arslon yanglig‘ arillashi,
Dovonlarning ko‘k qiyosi,
Qorli tog‘lar jilosidan,
Cho‘ponlarning qamish bayti,
Childirmanning darillashi,
Go‘ro‘g‘lining alp siyimosi,
Alpomishning da‘vosidan –
Tug‘ilgan til –

Ona tilim.

Tulporlarning asovligi,
Tosh chaqishi, olovligi,
Bobolarning oltin so‘zi,
Bo‘yoqchining o‘lanidan:
To‘quvchining alg‘ ovligi,
Chilangarning dalg‘ ovligi,
Bu tuproqning qo‘sh ho‘kizi,
Qo‘shchisi ham qo‘lanidan –
Yaralgan til –

Ona tilim.

Shu tuproqning jon ayamas
Tarlolnari, burgutlari,
Kelinlarning dildoshligi,
Yor-yorlarning jarangidan:
Bosqinlarning bedodligi,
Buvilarning o‘gtlari,
Do‘mbiraning mungdoshligi,
Dutorning ham tarangidan –
Taralgan til –

Ona tilim.

* * *

Saratonda soyaboning bo‘layin,
Toqqa oshsang, ko‘k dovoning bo‘layin.
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Yarim kecha kahkashoning bo‘layin.

Ketar bo‘lsang, xazon yog‘ar bog‘imga,
Sanchiq botar dilimdag‘i dog‘imga.
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Og‘u sochma mening xushvaqt chog‘imga.

Kerak emas sensiz gul ham, chaman ham,
Kerak emas Qandahor ham, Yaman ham.
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Kerak emas bo‘z tarlon ham, saman ham.

Pok olamim bulg‘anmasdan jilmaygin,
Olam g‘amga chulg‘anmasdan jilmaygin,
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Yurak dirdir to‘lg‘anmasdan jilmaygin.

To tirikman, o‘sha qaysar bolaman,
Na tinim bor, na izlashdan tolaman.
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Bari bir men seni topib olaman.

ONA TILI SHOIRLAR E’ZOZIDA

Rauf PARFI,
O‘zbekiston xalq shoiri

* * *

Kunduz o‘yga cho‘mar, tun yaqin.
Osmon yanglig‘ oqshom sharpasi –
Olis ufq so‘ngida yorqin
Kunning qizil shohi pardasi.

Kechki quyosh turmaklar sochin,
Jozibali bo‘lar ertaga!
Ana ko‘k ham marjonlar sochdi –
Kengliklarning moviy ertagin.

Dalalarda esar shabboda,
Egiladi nozik chuchmoma,
Yalpizlarning bargidan shoda –
Shoda shudring jimgina tomar.

Jozibali bo‘lar ertaga,
Sevgi fasli asl va bedog‘.
Kumush havolar-la o‘rtigi
Go‘zalligi bilan yashnar tog‘...

* * *

G‘unchalar pushtirang va za‘far,
Zangori yaproqlar shahrida.
G‘unchalar orzumdek har safar,
G‘unchalar qalbimning bag‘rida...

Qalbimning bag‘rida bir jahon
G‘arooyib ertaklar aytadi.
Men qaytib kelmasman hech qachon,
G‘unchalar, albatta, qaytadi.

* * *

Men o‘tkinchi, men faqat mehmon,
Dargohingda, ey, turkiy tilim
Menga bir she‘r kerak, ey, mezbon,
Yozilmagan she‘r erur dilim.

Aytgil, nechun bunchalar qiziq,
Eski jahon, bu eski jahon?
Bir she‘r kerak non kabi issiq.
Menga bir she‘r kerak, ey, mezbon.

Men g‘aribman va sen beomon,
Sen Quyoshsan, men so‘ngan chiroq.
Qiynamagil meni, onajon.

Sen – abadiy, men – lahza, biroq
“Itoat et meng‘a shul zamon,
Yo aylgil telbani tuproq!”

* * *

Balki o‘chgan edim yodingdan,
Shirin xayolingni buzdimmi?
Laylo, Laylo, sening yoningda
Yaproq kabi ko‘rdim o‘zimni,
Shirin xayolingni buzdimmi?

Seni o‘ylab kelmaydir uyqu –
Qora tunning o‘zga sehti bor.
Tushlarimda topay deb gulro‘,
Men uxlarman mangu, ehtimol.
Go‘zal tushlar tilayman, Laylo...

Yana paydo bo‘lding yo‘limda,
Yana yo‘llaringda bo‘zladim.
Bechora qalb sening qo‘lingda,
Ko‘zlariningda mening ko‘zlarim.
Nechun paydo bo‘lding yo‘limda?..

Shavkat RAHMON,
*O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan madaniyat xodimi*

VISOLSIZ ISHQ

Olovrang
barglarning saltanatida
yaproqday qovjirab yonganda bag‘rim,
fazo jimmiligiday kuz tal‘atidan
mehrga aylandi hattoki qahrim.

Dilimda nola yo‘q,
chashmimda – jola,
sokin ishq otashi yoqar jismimni.
Xaylim shu qadar ketdi havolab,
hattoki unutib qo‘ydim ismimni.

Ismim nimaydi deb, kundan so‘radim,
porlab suylab ketdi endi isming yo‘q.

Shamol gulxanlari ko‘kka o‘rladi:

biz kabi ruhing bor,
ammo jisming yo‘q.

Ruhimni dunyoga qo‘shib o‘stirdim,
endi tabiatning dono toshiman.

Qalandar shamol ham suygan do‘stimdir,
har bir chumolining qarindoshiman.
Zaminga sanchilgan bir terak kabi
o‘yimda titraydi moziy – xotira.

Agarda qo‘zg‘alsam,
og‘ochlar safi

ildizin qo‘porib kelar ortimdan.

Olovrang
barglarning jim davrasida

naqadar yuksalib ketdim o‘limdan,
bag‘rim kuyib ketdi jozib sasidan
baxtiyor bo‘lganda samo yo‘lida.
Oniy jamolidan ko‘zim kamashdi,
lahzada qorayib qoldi qorliklar.
Yildirim singari o‘tkir qarashdan
zaminga quladim baxtiyorlikdan.

...Ey, qiz,
quyosh yanglig‘ botarman endi,
quyoshday yog‘dular to‘karsan, ey, qiz.
Ey, qiz,
tuproq bo‘lib yotarman endi,
osmonda osmonday o‘tarsan, ey, qiz.

AGAR...

Tuhmatdan yiqilsa
birorta do‘stim,
men-chi xilvatlarda berkinib yotsam.
Bu ham yetmaganday ancha vaqt o‘tib,
poklikdan so‘ylasam,
xotira sotsam.
Yo‘q, bo‘lmas,
yashardim boshimni egib,
kezardim umrbod yurtma-yurt oshib.
Odamzod ko‘ziga qarolmasam tik,
ko‘ksimga osilgan bo‘lardi boshim.
Yo‘q, yo‘q, yo‘q...

Albatta birga bo‘lardim
tamug‘ malaylari ishga tushgan choq.
Do‘stim-la yonma-yon turib o‘lardim,
ehtimol, o‘lardim undan oldinroq.

YO‘LBARS

Mangu qochar,
qochar tog‘lardan,
o‘rmonlardan, changal, to‘qaydan.
Dunyoda ko‘p yashagani yo‘q,
ammo buncha dashmani qaydan?
Sho‘rlik yo‘lbars,
qayga qochmasin,
faqat ovchi yo‘lini to‘sdi.
U hech qachon qochmasdi, ammo
o‘ziga ham yoqardi po‘stin.

**Halima
XUDOYBERDIYEVA,**
O‘zbekiston xalq shoiri

«ESKI O‘ZBEK TILI»GA YOZUV

Mening tig‘ tilgan tilim,
Mening kesilgan tilim,
Bahaybat to‘g‘on tushib,
Yo‘li to‘silgan tilim.

Qushning unut patiday
To‘kilgan unut jonim,
Kitoblarning qatida
Rangi ro‘yi somonim.

«Eski o‘zbek tili»mas,
Dedilar eskirgan til,
Qo‘rqib chiqarmoqqa sas,
Sandiqlarga kirgan til.

Senda bodom isi bor,
Senda bobom isi bor,
Bolam na rus, na o‘zbek,
Arosat belgisi bor.

Besh yuz yillar avvalgi
Xatni men anglayman, bas,
Men bugun aytganimni
Bolam ba‘zan tushunmas.

Ko‘kragimda dod qotgan,
Yaqinlashar katta xavf,
O‘z tilini yo‘qotgan
Xalq bo‘lmasmi yerdan daf.

Oldga, safarbarlikka
Qanday yaraydi bolam,
Ortidagi jarlikka
Qanday qaraydi bolam.

Uni kim qilib qo‘ydim,
Kim bo‘ldi og‘am-inim,
Tomir-tomirim kuydi,
Sindi bo‘g‘in-bo‘g‘inim.

Guli unut xalq bo‘ldik,
Yo‘li unut xalq bo‘ldik,
Ommaviy gunqlik sodir,
Tili unut xalq bo‘ldik.

Umrimning shom, kechiga
Shu o‘y sanchilib turib,
«Lug‘otit-turk» ichiga
Yoshim tomchilab turib,
Dedim: – Tig‘ tilgan tilim,
Mening kesilgan tilim.

* * *

Kuzning yonoqlari namli tuyular,
Qo‘rg‘oshinday og‘ir kuz so‘roqlari.
Yurakka nimadir hazin quyular
Va ko‘ra boshlaysan aniq dog‘larni...

Avj gullagan ko‘klam, saratonli yoz,
Kechagina edi poyimda bari.
Shu – dirillab turgan sariq yaproq rost,
Tushday o‘tib ketdi oldingilari.

Afsuslarni uzoq o‘tirib, chekmay,
Shoshib qo‘zg‘alamani, to‘zg‘igan to‘zim.
Endi unga dardim aytay kechikmay,
Ketib qolmay yaproq va yo men o‘zim.

Kuzning yonoqlari namli tuyular...

Muassis:
*O‘zbekiston davlat san‘at va
madaniyat instituti*

Bosh muharrir:

Azizxo‘ja TILLAXO‘JAYEV

Tahrir hay‘ati:
Go‘zal XOLIQULOVA
Ma‘rifun YULDASHEV
O‘tkur ISLAMOV
Antonino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA
Mas‘ul kotib:
Alimurod TOJIYEV
Nafisa RAIMQULOVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo
Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.
www.dsni.uz; nashriyot@dsni.uz

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O‘rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash‘al mahallasi, Markaz – 1.

Sahifalovchi:
Shahriyor IBRAGIMOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo‘limida tayyorlandi.
O‘lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 500 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 10.07.2020-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqами
bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.